

**O‘ZBEK TILIDA RANGLARNING SEMANTIK-STILISTIK
TAHLILI ÖZBEK DİLİNDEKİ RENKLERİN SEMANTİK-STILISTIK ANALIZI
SEMANTIC-STYLISTIC ANALYSIS OF COLORS IN UZBEK**

G‘.Do‘stmurodov

*IPU Samarqand kampusi “Pedagogogika va ijtimoiy
gumanitar fanlar” kafedrasi dots.v.b*

R.Ernazarov

*Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda ranglarning adabiyotda va kundalik nutqda ishlatiladigan barqaror birikmalaridagi ma’nolari, ularning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Masalan, oq, qora, yashil, qizil, ko‘k kabi ranglarning birikmalardagi ishlatilishi o‘zining semantik ma’nolari orqali turli ruhiy holatlar, shaxsiy va ijtimoiy ahvol, voqealar va tajribalarni tasvirlashda muhim rol o‘ynaydi. Ranglarning semantik tahlili orqali, nafaqat o‘sha rangning o‘zi, balki uning ma’lum bir kontekstda qanday ma’no anglatishi va qanday holatda ishlatilishi, o‘quvchi yoki tinglovchiga qanday hissiy ta’sir ko‘rsatishi o‘rganiladi. Bu jarayonda ranglarning ma’no qatlamlari, ularning ijtimoiy va psixologik o‘zgarishlardagi o‘rni, shuningdek, ranglarning madaniy tasavvurlardagi muhim roli yoritiladi.

Özet: Bu çalışma, edebiyatta ve günlük konuşmada kullanılan renklerin sabit kombinasyonlardaki anlamlarını, sosyal ve kültürel bağlamdaki önemini analiz etmektedir. Örneğin beyaz, siyah, yeşil, kırmızı, mavi gibi renklerin kombinasyon halinde kullanılması, çeşitli zihinsel durumların, kişisel ve sosyal durumların, olayların ve deneyimlerin anlamsal anlamlarıyla anlatılmasında önemli rol oynar. Renklerin anlamsal analizi ile yalnızca rengin kendisi değil, aynı zamanda belirli bir bağlamda ne anlama geldiği, nasıl kullanıldığı, okuyucu veya dinleyici üzerinde nasıl duygusal bir etki yarattığı da araştırılmaktadır. Bu süreçte renklerin anlam katmanları, sosyal ve psikolojik değişimlerdeki yeri, kültürel tasavvurlarda renklerin önemli rolü vurgulanmaktadır.

Annotation: This research analyzes the meanings of color expressions used in literature and everyday speech, as well as their significance in social and cultural contexts. For example, the use of colors such as white, black, green, red, and blue in fixed expressions plays a crucial role in depicting various emotional states, personal and social conditions, events, and experiences through their semantic load. Through the semantic analysis of colors, not only the color itself is examined but also how it conveys meaning in a specific context and how it affects the reader or listener emotionally. The study highlights the layers of meaning associated with colors, their role in social and psychological changes, and their important place in cultural perceptions.

Kalit so‘zlar: Semantika, ranglarning xususiyatlari, barqaror birikma, qora rangi semantikasi, qizil, yashil.

Anahtar Kelimeler: Anlam bilgisi, renklerin özellikleri, kararlı kombinasyon, siyah, kırmızı, yeşil renklerin anlambilimi.

Keywords: Semantics, color characteristics, fixed expressions, semantics of black, red, green.

Ranglarga doir tushunchalar insoniyatning o‘zini anglay boshlagan davrlardan buyon mavjud. Xususan, qadimgi turkiylarning Ko‘k Tangriga sig‘inishi va u bilan bog‘liq fikrlar buni dalillaydi.

Ranglar nazariyasiga oid dastlabki ilmiy xulosalar esa V.Alpatovga tegishlidir. Olim predmet va rang o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki nisbiy aloqa mavjudligi sabablarini aniqlagan [Алпатов, 2003: 225].

Z.Pardayev tomonidan amalga oshirilgan o‘zbek tilidagi sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari haqidagi tadqiqotda rang bildiruvchi sifat leksemalar ham tadqiq etilgan. Tadqiqotda qora, oq, qizil, yashil, ko‘k kabi faol qo‘llanadigan rang bildiruvchi leksemalarning semantik-uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan [Пардаев, 2004: 7]. Shuning bilan birgalikda ranglarning barqaror birikimlar tarkibida qo‘llanishiga doir qarashlarini ham berib o‘tgan. Chunki paremiologik birliklarda ranglarning ma‘nosi o‘ziga xos ahamiyatga ega, ranglar, nafaqat real ob‘ektlarni tasvirlashda, balki madaniy va ijtimoiy kontekstda ham muhim rol o‘ynaydi. Ranglar tilga bevosita ta‘sir qiladigan o‘zgaruvchan belgilar sifatida, nafaqat ob‘ektlarning rangini, balki ular bilan bog‘liq his-tuyg‘ular, niyatlar va mental obrazlarni ham ifodalaydi. O‘zbek tilidagi barqaror birikmalarda ranglarning semantik tahlili ularning tilshunoslik, psixologiya va madaniyat kontekstida qanday ma‘nolarni anglatishini va bu ma‘nolarning qanday shakllanishini o‘rganish uchun muhim ilmiy asosni taqdim etadi. Shu nuqtayi nazardan, semantika tushunchasi, uning tildagi o‘rni, ma‘no va uning ifodalanishi haqida chuqurroq tahlil qilish, ranglarning semantik funksiyalarini aniqlash va ular orqali tilda qanday tasavvurlar va g‘oyalar shakllanishini o‘rganish, tilni to‘g‘ri tushunish va ishlatishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o‘zbek tilining boyligini, uning madaniy va ijtimoiy talqinlarini anglashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Semantika – tilshunoslikning so‘zlar, iboralar va jumlarlar ma‘nosini o‘rganuvchi, ularning qanday shakllanishi va ifodalanishi bilan shug‘ullanuvchi bo‘limidir. Semantika so‘zi yunoncha **semantikos** so‘zidan olingan bo‘lib, **“belgilar bilan bog‘liq”** yoki **“belgi”** ma‘nolarini anglatadi. Semantikaning asosiy vazifasi til orqali ifodalangan ma‘no va uning qanday shakllarda ifodalanishini o‘rganishdir. Shu jihatdan olib qaraganda, ranglar semantikasi muloqot jarayonida ham, badiiy adabiyotda qahramonlarni to‘laqonli ochib berishda ham muhim ahamiyatga ega.

Y.Lotman badiiy asardagi ranglarning berilishiga emas, simvollarning, jumladan, rang simbolikasining badiiy asardagi talqiniga e‘tiborini qaratadi [Лотман, 2000: 703]. Masalan, **“qora tunda yurganlar”** yoki **“qizil olma”** kabi iboralar nafaqat obyektни tasvirlaydi, balki ular orqali obraz yoki holatning ruhiy yoki jismoniy holatini ta‘kidlashi mumkin. Rangli tavsiflar ko‘pincha metafora yoki simbol sifatida ishlatiladi, bu esa o‘quvchi yoki tinglovchiga qahramonlarning ichki holatini yoki voqea o‘tkazayotgan atmosferani chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek, ranglar orqali tabiat, ijtimoiy muhit, insonning ruhiy holati va boshqa elementlar tasvirlanadi. Adabiy asarlarda tasvirlangan har bir rang o‘ziga xos ma‘no va tuyg‘ularni anglatadi. Masalan, turli voqealar tasvirlangan asarlarda **“sariq”** rang ko‘pincha ehtiyotkorlik, ogohlantirish, yangilikka tayyorlikni anglatadi, **“yashil”** rang esa umid, tinchlik va tabiatni tasvirlashda ishlatiladi. Xususan, taniqli rus yozuvchisi Dostoevskiyning **“Jinoyat va jazo”** asarida sariq rang ko‘pincha ijtimoiy o‘zgarishlarga nisbatan ogohlantirish sifatida ishlatilgan. Asarda personajlar ichki tanglikda, yangi ijtimoiy vaziyatlarga duch kelishdan oldin sariq rangda tasvirlangan joylar tasvirlanadi. Rang bu yerda **“yangilikka tayyorlik”** va biror voqeaning mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarini anglatadi. O‘zbek tilida ko‘plab jumalarda, shuningdek, adabiy asarlarda ranglar alohida tushuncha ifodalash uchun xizmat qiladi. Jumladan, qora leksikasi ayrim tillarda ko‘pincha salbiylik, motam ma‘nolarni ifodalaydi. O‘zbek tilida ham **“qora”** rang bildiruvchi leksemasi keng tarqalgan bo‘lib, u turli kontekstlarda ijtimoiy, madaniy va psixologik jihatlarni aks ettiradi. Qora so‘zining leksik ma‘nolari asosan jiddiy, g‘amgin yoki dramatik tuyg‘ular bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, shoirning quyidagi so‘zlari shaxsiy qiyinchiliklar va og‘irliklarga duch kelgan hayotini ifodalaydi. Bu yerda

“qaro kun”ning ishlatilishi – qorong‘u, og‘ir, umidsiz davrni anglatadi, ya’ni shoir tug‘ilgan kunning ham musibatlar bilan boshlangani haqida gapirmoqda.

Lekin Layli boshiga kelgan

Qora kunlar bizga yot butun;

Bizga yotdir Shirin baxtini

Poymol etgan u qop-qora tun. (Hamid Olimjon)[Олимжон, 1951: 43].

Bundan tashqari ranglar o‘zbek xalq maqol, matallarida, ibora, aforizm hamda tasviriy ifodalarda keng qo‘llaniladi. Barqaror birikmalar – bu tilning kamida ikki so‘zi o‘zaro ma‘lum bir ma‘noda birlashgan, ko‘pincha metaforik va figurativ ma‘nolarni ifodalovchi birliklardir. Ranglar barqaror birikmalarda ko‘pincha tashqi holatlar, ruhiy holatlar, ijtimoiy ahvol va ma‘naviy qadriyatlarni ifodalashda ishlatiladi. O‘zbek tilidagi barqaror birikmalarda ranglarning ishlatilishi ma‘lum bir semantik yuklarga ega bo‘lib, o‘quvchilarga yoki tinglovchilarga aniq tasavvur va his-tuyg‘ularni yetkazishga yordam beradi. Quyida ranglarning barqaror birikmalardagi ishlatilishini turli misollar bilan tahlil qilamiz.

1. Qora rang, asosan, salbiy, qayg‘u, xavf, zulm yoki o‘lim bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror birikmalarda ishlatiladi.

Qora tun – qorong‘u, xavfli yoki umidsizlikni bildiradi. Misol: “*Qora tunning qorong‘isida qahramonlar katta kurashga kirishdilar*”. Bu ibora nafaqat qorong‘ilikni, balki qahramonlar duch kelayotgan yomon, noxush voqealarni anglatadi.

Qora ko‘zlar – shafqatsiz, yovuz yoki dahshatli ko‘rish usulini anglatadi. Masalan, “*Uning qora ko‘zlari meni qo‘rqitdi*”. Bu ifoda ko‘pincha shaxsning yovuzligini yoki qo‘rqituvchi ko‘rinishini ta’riflashda ishlatiladi.

Qora yurak – yovuz, axloqsiz, hissiz insonni ifodalashda ishlatiladi. Misol: “*Qora yurakli odam har qanday yolg‘onni aytishga tayyor*.” Bu ibora odamning ichki dunyosining qorong‘uligini bildiradi.

Qora soch – ko‘pincha yosh va kuch-quvvatni anglatadi, lekin ba’zida qayg‘u va yoshi ulg‘ayganlikni ifodalashda ham ishlatiladi. “*Qora sochli yigit hali yoshligida edi*” yoki “*Qora sochli ayol qariydi*”. Sochning qorayishi insonning yoshligini yoki qarish jarayonini bildiradi.

2. Oq rang, odatda, poklik, tozalik, tinchlik, yangi boshlanish va umid bilan bog‘liq barqaror birikmalarda qo‘llaniladi.

Oq soch – qarilikni yoki tajribani ifodalaydi. Misol: “*Oq sochli qariyalar qishloqni boshqarardi*”. Bu ifoda yoshning o‘tishini va tajriba orttirishni bildiradi.

Oq yuz – poklik yoki insonning daxlsizligini anglatadi. Misol: “*Uning oq yuziga xiyonat izlari chiqdi*”. Bu ibora, shaxsning daxlsizligi va pokligini ko‘rsatadi.

Oq qalb – to‘g‘ridan-to‘g‘ri, sodiq yoki samimiy qalbni anglatadi. Masalan, “*Uning oq qalbi barcha dushmanlaridan ham yaxshiroq edi*”. Bu ibora, insonning ichki dunyosidagi yaxshilikni bildiradi.

Oq tun – tinch, osoyishta kecha yoki vaqtni anglatadi. “*Oq tunlarda yurish hayajonli edi*”. Bu ibora tinchlik, osoyishtalikni anglatadi.

3. Qizil rang ehtiros, sevgini, g‘azabni yoki xavfni bildiradi. O‘zbek tilidagi barqaror birikmalarda bu rang turli ijtimoiy va hissiy holatlar bilan bog‘liq.

Qizil yuz – g‘azab, ajablanish yoki to‘lg‘anishni bildiradi. Misol: “*Uning qizil yuzi unga to‘g‘ridan to‘g‘ri javob qaytarishga majbur etdi*”. Bu ibora g‘azablanganlik yoki noqulaylikni ko‘rsatadi. Bunday misollarni ko‘plab asarlarda uchraydi: «Miryoyub tutilib qoldi. Qizardi, bo‘zardi... qochmoq istardi[Cho‘lpon, 2000: 153].

Qizil qalb – kuchli sevgi yoki ehtirosni ifodalaydi. “*Qizil qalbli sevuvchi erkak uni kutib olishga shoshildi*”. Bu ibora sevgi va ehtirosni anglatadi.

Qizil lablar – go‘zallik, jozibadorlik yoki erotizmni bildiradi. Masalan: “*Qizil lablar uning go‘zalligini yanada oshirardi*”. Bu ibora ko‘pincha romantik yoki jozibali tasvirlarda ishlatiladi. Mahmud Qoshg‘ariy o‘z asarida turli turkiy tillardagi so‘zlarni izohlaydi, shu jumladan ranglar leksikasiga ham alohida e‘tibor qaratadi. “Qizil” so‘zi asarda aynan shu shaklda keltirilgan va u qizil rangni ifodalash uchun ishlatilgan. Qizil so‘zi “Devonu Lug‘otit-turk”da faqat rang ma‘nosida emas, balki turli ramziy va madaniy ma‘nolarda ham qo‘llanilgan. Masalan, u jangchi va qahramonlarning ramzi, olov yoki qon bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalarni ham o‘zida aks ettirgan. Shu sababli, “Devonu Lug‘otit-turk” asarida qizil rang turkiy xalqlarning urf-odatlarini va madaniyatidagi o‘rni ham aks ettirilgan. Qoshg‘ariy qizil rangni o‘z asarida tushuntirib, uning ma‘nolarini va qo‘llanilishini yoritadi. Ranglar bo‘limida “qizil” so‘zining o‘ziga xos semantikasi, uning urf-odatlarda, xalq og‘zaki ijodida va boshqa madaniy kontekstlarda qanday ishlatilishi ko‘rsatilgan.

4. Yashil rang tabiiylik, tinchlik, umid yoki hayotni anglatadi. Qilingan tadqiqotlar insonning o‘n xil pigment geni rangga tegishli bo‘lgani uchun bitta rangni ikkita inson ikki xil ko‘rishi, rang tasviri va uning nomi inson ongida boshqa-boshqa holatni ko‘rsatishi mumkin, degan xulosaga keladi. Bu turli xil davlatlarda ranglarning qanday qabul qilinishiga, yashil – AQShda “tinchlik”, Fransiya – “jinoyat” ni, oq rang – xitoyliklar uchun “g‘am”ni, evropaliklar uchun bu ma‘no qora rangda ifodalanishini ta’kidlab o‘tadi [Исраилова, 2022: 17-18]. Demak, bir xil rang lisoniy ongda turlicha idrok etiladi. Yashil rang amerikaliklarda tinchlik haqidagi ma‘lumotlarni, “tinchlik” tushunchasining belgilarini (urushga zid holatni, osudalik, tiniq osmon, tinch faoliyatni) jonlantiradi. Yashil rangni ko‘rishi bilan yoki u bilan bog‘liq konnotatsiyani anglash jarayonida fransiyalik ongida “jinoyat” (yovuz faoliyat, qotillik, jabr-zulm etkazish, jismoniy azob) tushunchasi namoyon bo‘ladi. Yashil rang o‘zbek ongida yashil maysa, bahor, yashil tabiat (nutqda “ko‘m-ko‘k” deb sifatlanadi), ko‘klam, bahor tasvirini jonlantiradi. Yashil so‘zi ko‘chma ma‘noda “yoshlik”, “yasharish” tushunchalari bilan assosiativ munosabatda bo‘ladi. “Yashil qit’a” tasviriy ifodasi Avstraliyani gavdalandiradi. Keyingi davrlarda ekologiya buzilishi natijasida dunyo miqyosida “yashil iqtisod” siyosati global ahamiyat kasb etmoqda. Yashil rang belgini (o‘simlik, daraxt rangini) ifodalashdan xususiyatni (ekologiya, iqlim, kislorod) ifodalashga o‘tgan. Bu rang barqaror birikmalarda tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab tasvirlarda ishlatiladi.

Yashil dalalar – tabiiy go‘zallikni, hayotni va osoyishtalikni bildiradi. Misol: “*Yashil dalalarda yurib, u tinchlikni topdi*”. Bu ifoda tabiatdagi go‘zallik va osoyishtalikni ifodalaydi.

Yashil nur – umid yoki yangi boshlanishlarni bildiradi. Masalan, “*Yashil nurning porlashi bilan u yangi imkoniyatlarga yo‘l ochdi*”. Bu ibora yangi imkoniyatlarni va umidni anglatadi.

Yashil o‘rmon – tabiatning go‘zalligi yoki osoyishtaligi. “*U yashil o‘rmonlarda sayr qilishni yaxshi ko‘rar edi*”. Bu ibora tabiatni tasvirlashda ishlatiladi.

5. Ko‘k rangning barqaror birikmalarda ishlatilishi ko‘pincha tinchlik, osmon, umid yoki yangi boshlanishlar bilan bog‘liq.

Ko‘k osmon – tinchlik, erkinlikni ifodalaydi. Misol: “*Ko‘k osmon ostida yangi hayot boshlanadi*”. Bu ifoda tabiatning ochiqqligi va erkinlikni bildiradi.

Ko‘k ko‘zlar – go‘zallik va noziklikni anglatadi. “*Uning ko‘k ko‘zlari uni boshqacha ko‘rishga majbur qildi*”. Bu ibora, odatda, go‘zallikni ta’riflashda ishlatiladi.

O‘zbek tilidagi barqaror birikmalarda ranglarning ishlatilishi har doim turli ruhiy holatlarni, ijtimoiy ahvol va tajribalarga asoslangan tasvirlarni ifodalaydi. Ranglar birikmalarda ko‘pincha

nafaqat tashqi ko‘rinishlarni, balki insonlarning ichki dunyosini, ular duch kelayotgan holatlarni yoki voqealarni ta’riflaydi. Ranglarning semantik boyligi va ularning adabiyotdagi, she’riy ifodalardagi ishlatilishi adabiy asarlarning mazmunini chuqurlashtiradi va o‘quvchiga yanada kuchli hissiy ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алпатов В.М. Языки культура. – М.: Языки славянских культур, 2003. – 225 с.
2. Пардаев З. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари. – Самарқанд: 2004. – 7 б.
3. Лотман Ю.М. Культура и взрыв. Внутри мыслящих миров. – СПб.: Искусство: 2000. – 703 с
4. Ҳамид Олимжон, Танланган асарлар. ЎзССР давлат нашриёти, – Тошкент: 1951, 43-бет
5. Cho’lpon. Kecha va kunduz. «Sharq» nashriyot matbaa konsernining tahririyati. – Toshkent: 2000. 153-bet
6. Исраилова Саодат Тураповна “Кўк” лексемаси семантикаси ва тезауруси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси, – Гулистон: 2022, 17-18-б.
7. Хикматова, Д. У. (2018). СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ КАК СРЕДСТВО ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ. MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS, 35.
8. Хикматова, Д. П., & Бух, Г. У. (2018). ЯЗЫКОВАЯ НОРМА И НОРМА ЛИТЕРАТУРНОГО ЯЗЫКА КАК ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПОНЯТИЯ. MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS, 110.